

**TARBIYASI QIYIN O‘SMIRLARNI ANIQLASH VA QAYTA
TARBIYALASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK OMILLARI**

Nazarov Ilxom Alimovich

*Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar
kafedrasi katta o‘qituvchisi podpolkovnik*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyasi og‘ir bolalr bilan ishlash uchun mutaxassislar, psixolog va pedagoglar uchun uslubiy ko‘rsatmalar albatta zarur. Buning uchun amaliy psixologik yordamning tashxis qo‘yish, bola va o‘smir to‘g‘risida yetarlicha ma’lumotlar to‘plab ularga yordam ko‘rsatish chora-tadbirlarini belgilash, o‘smirlarning xulq-atvoridagi og‘ishlarni aniqlash va tarbiyasi og‘ir bolalar va yordam beruvchi pedagogik uslublardan foydalanish haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Agressiv, jaxldorlar, tarbiyasi qiyin, kam e’tibor, g‘ayrima’daniy, nosog‘lom oilaviy munosabatlar, “ajrashish” epidemiyasi, ijtimoiy pedagogik tashlandiqligi,

Tarbiyasi qiyin bolalarga odatda, axloqiy rivojlanishida ma’lum og‘ishishlarga ega, xulqida salbiy formalar mavjud, tartibsiz bolalarni kiritish mumkin. Tarbiyasi qiyin bolalar yomon o‘qiydilar, uy vazifalarini kamdan kam, xoxlamasdan bajaradilar, maktabga ko‘p kelmaydilar. Darslarda o‘zlarini yomon tutadilar, ko‘p janjallahadilar. Ular orasida sinfdan qolganlar ko‘p uchraydi. Odatda oilada ularning tarbiyasiga kam e’tibor qaratadilar. Ular o‘zlaricha voyaga yetadilar. Ko‘picha o‘g‘irlik qilishga, sadaqa so‘rashga majbur bo‘ladilar. Agressiv, jaxldorlar, hayotning qorong‘i tomonlari bilan tanishlar. Chekish, ichish, narkotiklarga erta ruju qo‘yadilar. Voyaga yetgach, tashkiliy guruxlar tuzadilar, o‘g‘irlik xattoki qotillikka qo‘l uradilar.

Odatda bolalar ota onalarining hayot tarzlarini aks ettiradilar. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar orasida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Bolalar bilan ilk yoshlaridan maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlarning amalgal oshirilmamasligi
 - ularni qiziqish va xoxishlarini bilmaslik
 - siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy, ekologik beqarorlik;
 - G‘ayrima’daniy ta’sirlarni kuchayishi
- Nosog‘lom oilaviy munosabatlar
- Bolalar xarakatlariga nazoratning yo‘qligi, ahamiyatsizlik, bolalarga e’tiborsizlik;
- bajargan xarakatiga nisbatan jazoning o‘ta yumshoqligi yoki o‘ta qattiqligi
- Jamoaviy ishlab chiqarish muhiti yoki shaxsiy ishlarda o‘ta bandlik,

- “ajrashish” epidemiyasi;
- Bolalar bilan emotsiyal aloqalarning yo‘qolishi..

Pedagogik qoloqlik – bu umumiy ijtimoiy qoloqlikning bir qismi. Agar savolni quyidagicha , bolalarni assotsial xarakatida faqatgina oila yoki maktab aybdormi?, deb qo‘ysak, bunda javob salbiy bo‘ladi, ijtimoiy institatlarni normal tashkil etilishiga sharoit yaratmaydigan jamiyat aybdor.

Tarbiyasi qiyin bolalar – bu xar doim qoloq bolalar, ularga o‘z vaqtida e’tibor qaratilmagan, ularni xulqini korreksiyalashni kerakli chorralari ko‘rilmagan. Qiyinlar kategoriyasiga normal ta’lim tarbiya jarayonidan qolib ketgan maktab o‘quvchilari kiradi, ularda o‘qituvchilar bilan to‘g‘ri munosabat bo‘lmaydi, jamoada o‘z o‘rnini ijtimoiy jixatdan topa olmaydilar.

Qiyinlarga intizomsiz maktab o‘quvchilari ham kiritiladi. Ularning jo‘shqin faolligi, qaynab turuvchi energiyasi ba’zida to‘g‘ri yo‘lni topa olmaydi va sho‘xlik, intizomni buzishda namoyon bo‘ladi. Do‘srlarining yomon ta’siri, bekorchilik, e’tiborsizlik intizomsizlikni rivojlanishiga ta’sir etadi. Uni bartaraf etish uchun bolalarni faolligi va energiyasini qiziqarli ishlarga yo‘naltirish, ularni initsiativasiga to‘g‘ri yo‘nalish ko‘rsatish lozim.

Agar bola butun g‘ayrati bilan ishlamasa, erinsa u ham og‘ir hisoblanadi. Normal va sog‘gom o‘quvchilarda mehnatga nisbatan intilish, xoxish, odat normal bo‘lishi lozim.

Bolani ijtimoiy pedagogik tashlandiqligi unga nisbatan atrofdagilarni, ota onalarni, o‘qituvchilarni, jamiyatni beetibor munosabati oqibatida kelib chiqadi. Bu e’tiborsizlikni bolalar yolg‘izlik, keraksizlik, tashlandiqlik, yuz o‘girish kabilarda chuqur his qiladilar. Butun dunyoga, kattalarga, jamoaga nisbatan e’tiroz hissi paydo bo‘ladi. Bola o‘zini tasdiqlashni yangi usullarini qidiradi va odatda etiketga va qoidalarga zidlarini tanlaydi.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashning birinchi bosqichda ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik diagnostika qilish, qiyin tarbiyalanuvchanlikning sabablarini, oila va maktabning tarbiyaviy imkoniyatlarini, noqulay sharoitlarni aniqlashga, o‘smirning tipik va o‘ziga yarasha hissiy dunyosidagi pedagogik qoloqligi, uni qayta tarbiyalashda ijobiy sifatlarini hisobga olish lozim.

Tarbiyasi qiyinlik sabablarini quyidagi sxema bo‘yicha o‘rganish maqsadga muvofiq:

- o‘smirning ruhiy dunyosida eng ko‘p nima buzilgan va bunga nima sabab bo‘lgan;
- xozirgi vaqtida qanday noxush sharoitlar mavjud;
- qanday salbiy xolatlarni tarbiyalanuvchi o‘zi xal eta oladi, qaysilarini oila yoki jamoat ko‘magida bartaraf etish lozim;

➤ o‘smirga nisbatan pedagogik xatolarga yo‘l qo‘yilganmi va ularni qanday to‘g‘irlash mumkin.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlar tomonidan amalga oshirilayotgan noqonuniy xattiharakatlarga katta yoshdagi kishilar va ota-onalarning e’tiborsizligi holati. Bunda o‘z noqonuniy harakatlarining javobsiz qolishi, kattalar tomonidan ma’qullanishini his etgan o‘smir nizoli vaziyatlarga barham berishda noqonuniy yo‘lni tanlaydi. Chunki u ota-onasidan, atrofdagilardan jazo olmasligini biladi. Bu esa o‘smirga yangi-yangi noqonuniy harakatlarni bajarishga imkoniyat eshigini ochib beradi.

Xulosa qili aytganda yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, nosog‘lom muhitga tushib qolgan o‘smir asta-sekin ushbu muhitning tartib va qoidalariiga bo‘ysina boshlaydi. Oqibatda o‘smirda ushbu mikromuhitga xos bo‘lgan salbiy xislatlar paydo bo‘ladi. Bu bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishida ijtimoiy muhit shart-sharoitlarining o‘rni, ta’siri katta ekanligini ko‘rsatadi.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlar o‘rgangandan so‘ng u bilan o‘zaro yahshi aloqa o‘rnatish lozim, turli ijtimoiy- pedagogik va psixologik metodlardan, pedagogik munosabat vositalaridan, shuningdek qayta tarbiyalash metodlaridan foydalangan xolda tarbiyalash va qayta tarbiyalash talab etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurasulova Q. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. // «Qonun himoyasida», 2001, №1. - 23-26 b.
2. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya.-M.: 1999.-
3. Bobomurod A. Kamolot sari. « Cho‘lpon» nashriyoti, 2000 - 80 b.
4. Zmanovskaya Ye.V. Deviantologiya (psixologiya otkloniyayushchegosya povedeniya) – M., 2007, 4 - oe izdanie. - 285 s.
5. G‘ozievE.G‘. U mumiy psixologiya.. T. O‘qituvchi. 2010 y.
6. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
7. Kleyberg Yu.A.Psixologiya deviantnogo povedeniya: Ucheb.posobie dlya vuzov.- M.,2001.